

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI NUTQIDA TO'G'RI TALAFUZ
KO'NIKMALARINI SHAKILLANTIRISH**

Qodirova Kamola Jahongir qizi,

Guliston Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 106_20-guruh talabalari
Qodirovakamola03@gmail.com

Eshquvvatova Mohinur Dilshod qizi,

Guliston Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 106_20-guruh talabalari
mohinureshqvvatova33@gmail.com

Tirkasheva Xumora Nurali qizi

Guliston Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 106_20-guruh talabalari
tirkashevax@gmail.com.

Annotatsiya

Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda nutq madaniyatini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Nutq to'g'riligi ustida ishlash boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini takomillashtirish o'qituvchining o'quv-uslubiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri sanaladi. Nutq madaniyatini shakllantirish masalasi uzoq o'tmish sharq muttafakkirlari tomonidan ham aytib o'tilgan. Pedagog o'quvchilarga qancha chiroyli va to'g'ri talaffuzda so'zlasa, o'quvchilarning nutqi ham o'ziga xos shakllanadi va rivojlanadi. Hozirgi kunda bola nutqini to'g'ri rivojlantirish har bir pedagogning oldidagi muhim vazifasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Pedagog, nutq, madaniyat, o'quvchi, nutq ohangi, tarbiya, nutqi og'ishgan.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek, "Jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilamay, respublika fuqorolarining yangi avlodini tarbiyalamay, erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirmay turib, farovon, qudratli demokratik davlat, erkin fuqorolik jamiyatini barpo etib bo'lmaydi".

Asosiy qism:

Ma'lumki, o'rta maktab o'quvchilari hatto oliy o'quv yurti talabalarining og'zaki nutqining boy, sermazmun va ravon bo'lishi, ularning qanday mutaxassis bo'lishidan qat'i nazar

,madaniyatli,yetuk inson ekanligini ko'rsatuvchi omillardan biridir.Nutqi rivojlangan kishi puxta bilimli komil inson hamdir.Inson uchun eng zarur bo'lgan hislatni tarbiyalash bolaning tili chiqqan davrdanoq mohirlik bilan olib borilishi mutaxassislar tomonidan allqachon e'tirof etilgan[1].

Ma'lumki ,o'zbek tili turli shevalarga boy va ayrim o'ziga xos tovushlarga ega bo'lgan turkiy tillarning biridir.Shu bois,o'zbekcha so'zlashuvda orfoepik me'yorlardan chekinish hollari kop uchrab turadi.Bu narsa jarangli undoshlarni qo'llashda, baynalminal so'zlarni aytishda,qo'shma so'zlarni talaffuz qilishda ,unlilarni tushirib aytish,qator kelgan undoshlarni talaffuz qilish va boshqa holatlarda seziladi.

Pedagog bolalar bilan mashg'ulot olib borganida va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda o'zi ham o'zbek tilining orfoepik me'yorlariga to'liq rioya qilgan holda bolalarda ham shuni talab qilishi zarur.

Pedagog ,adabiy til me'yorlariga qaat'iy amal qilishi lozim.Chunki respublikamizning barcha tumanlarida turli millat vakillarining bolalari tarbiya oladi, o'qiydi.

Nutq ohangini rivojlantirish uchun tarbiyachi tez aytishlarni turli balandlikda,turli sur'atda talafuz qilishini taklif etadi, so'roq va tasdiq gap ohanglaridan to'g'ri foydalanshni mashq qildiradi. Bitta nutqiy materialdan qayta –qayta foydalanish orqali tarbiyachi bir vaqtning o'zida bir necha maqsadni amalga oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlang'ich sinfga chiqqan o'quvchilar o'z navbatida ma'suliyati oshadi,diqqatini jamlashi biroz qiyinlashadi.Darslarda uyga vazifalarni gapirayotganda,darslarda faol ishtirk etayotganda ham har bir o'quvchiga og'zaki nutq muhim ro'l o'ynaydi.Bazi bir o'quvchilarni nutqida ayrim kamchiliklar mavjud bo'lishi mumkin.Masalan:o'xshash harflarni ta'lafuz qilishi,ba'zi harflarning o'rnini almashtirib aytishi,harflarni yaxshi tanimay adashtirib aytishi ham sabab bo'ladi.O'qituvchi o'z nutqining bolalarga qanday ta'sir etayotganini kuzatishi,tushunarli va qiziqarli bo'lganini hisobga olishi kerak.Agar bolalar darsga e'tiborsiz o'tirsalar, demak, o'qituvchi nutqining ta'sir kuchi sust.O'qituvchining mahorati shundaki,u o'zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta'lim tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlashi kerak.Ma'lumki, o'qitish jarayonida pedagog o'quvchilar bilan individual holda nutqiy muloqatda bo'ladi.Boshlang'ich sinf o'quvchilarinning nutqidagi kamchiliklarini tanqid qilish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Qo'pol tanbeh,noto'g'ri tanqid o'quvchilar o'rtasidagi yaxshi muomalani buzishi ,o'quvchini o'rinsiz ranjitishi mumkin,shuning uchun ham o'qituvchi,nutqiy muomala qilishda pedagogik odob talablariga rioya qilishi,o'quvchilarning insoniy qadr –qimmat,obrosini saqlashga intilishi zarur.O'qituvchining nutqi o'quvchilarni o'ziga ergashtirib,ularda ham yoqimli nutq madaniyatini tarbiyalaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda bolalar bilan muloqot jarayonida pedagog bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olgan xolda tushunishi osson bo'lgan va o'zlashtirishi ,qabul qilishi osson bo'lgan so'zlarni tanlashi ulardan o'z nutqida foydalanishi kerak.Bolalar bilan suhbat chog'ida adabiy tilga oid so'zlarni qo'llash ,qo'pol so'zlarga yo'l qo'ymaslik ,oddiy so'zlashuv tili va shevalardan ,shuningdek,muomaladan chiqqan so'zlardan qochish lozim.O'qituvchining lug'ati qanchalik boy va turli-tuman bo'lsa ,uning nutqi qanchalik yorqin bo'lsa ,bolalar shunchalik ko'p so'zlarni o'zlashtirib olishlari mumkin.Bu esa o'qituvchining pedagogic mahoratiga bog'liq.Jamiki ma'naviy axloqiy fazilatlarning poydevori, tushunchalari,ko'nikmalari bolalikdan tarkib toptirilmasagina ,bu poydevor barqaror bo'lmaydi.Ma'naviy axloqiy fazilatlar tarkibida nutq,muloqot,munosabat madaniyati alohida o'rin tutadi.O'quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda pedagogning roli muhim.Bu pedagogning erkin va aniq –ravshan nutqi,o'quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.R.Babayeva Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi .Toshkent -2020
2. Ravshanbek Mahmudov Notqlik san'ati va nutq madaniyati .Toshkent <<Mumtoz so'z>> -2021
3. M.Asqarova,S.Matchonov,M.Xudoyberganova, F. Qodirova, X. G'ulomova, A. Boymatova, M. Bozorova , O'. Ro'ziboyeva
4. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. Toshkent" O'ZBEKISTON" 2001.